

ABDULLA QAHHOR-MASHHUR HIKOYANAVIS

Raximova Dilnoza Olimovna

Alfraganus universiteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilarni Abdulla Qahhor ijodiga bo‘lgan mehr-muhabbatini uyg‘otish, qiziqishlarini shakllantirish, hikoya janrini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini orttirish, fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat. Abdulla Qahhorning “Bemor”, O‘g‘ri” hikoyalarda hayotda keng tarqalgan engsizlik, mutelik, fikrlashdan mahrumlik, ijtimoiy muhit, qullik, psixologiyasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, realistik, hikoya janri, mutelik, ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy qashshoqlik, nochorlik, qahramonlar, “Bemor”, “O‘g‘ri”, mahorat;

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligining rivojida Abdulla Qahhorning o‘rni, hissasi nihoyatda katta. XX asr yangi o‘zbek adabiyotida realistik hikoya janrining shakllanishi va rivoji, avvalo, Abdulla Qahhor nomi bilan bog‘liq.

Bilamizki, Abdulla Qahhor hikoyalari jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorda kitobxonlar qalbidan joy olgan. Uning “Bemor”, “O‘g‘ri” kabi bir qator hikoyalari o‘zbek adabiyotida hikoya janrining taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan asarlar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalari ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”l

Adib dunyoga kelib, esini tanib, ilk bor ko‘nglida og‘ir taassurot qoldirgan narsa-hayotda keng tarqalgan tengsizlik, mutelik, fikrlashdan mahrumlik, qullik psixologiyasidir. Yozuvchining ilk muvaffaqiyatli chiqqan hikoyasi “Boshsiz odam”-dayoq mustaqil fikrlashdan mahrum, mute bir kimsaning hajviy xarakteri yaratilgan. Shundan keyin yozuvchi butun ijodi davomida bu toifa nomustaqil, mute odamlar obraziga takror-takror murojaat etadi. Har gal ijtimoiy illatning qandaydir yangi bir qirrasini ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O‘zbekiston-Liberal-demokratik partiyasining 8-s‘yezidagi saylovoldi ma’ruzasi. 2016-yil 20-oktabr.

Abdulla Qahhorning izchil realistik uslubda yozilgan hikoyalarining ko'pchiligi urush yillarida va urushdan keyingi yillarda yaratilgan. Abdulla Qahhorning "yozuvchi janrni emas, janr yozuvchini tanlaydi", degan gapi bor. Yozuvchi iste'dodi, badiiy tafakkur tarzi har jihatdan hayot hodisalarini hikoya shaklida ko'rish, idrok etishga moyildir. Haqiqatdan ham, yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'lami bo'lib gavdalanadi. Shu sababdan hikoyalarining ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq, ular hayotning aynan nusxasi emas. "Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyoda bundan oson ish bo'lmas edi", - deydi adib. Hayotdan aynan ko'chirish kitobdan ko'chirganday gap, nusxa-nusxa bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutib bo'lmaydi. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarini singdirish, tilaklaringni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi".

"Abdulla Qahhor hikoyalarini mazmuni va janr xususiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratib tahlil etish mumkin. Bularning bir guruhini o'tmish haqidagi hikoyalar tashkil qilsa, ikkinchi guruh hikoyalarining bosh qahramonlari zamondoshlarimizdir".

Yozuvchi hikoyalaridagi hayotiylik, ishontirish kuchi, siri ana shunda. Hayot hodisalarini o'ziga xos tarzda badiiy idrok etishi, mag'zini chaqib, ulardan xilma-xil original, reallikni aks ettira olishi, teran ma'nolarni topa olishi, kashf etishi hikoyalarida o'ziga xos joziba baxsh etgan. Birgina misol: "Bemor" hikoyasida tasvirlangan voqea o'xshash voqeani yozuvchi bolaligida boshidan kechirgan. "Biz Qo'qonga yaqin Yaypan qishlog'ida turar edik, - deya eslaydi adib. Onam g'ira-shira qorong'i uyda to'lg'oq tutib yotar, ichkarida ingragan, dodlagan tovushi eshitar edi. Yaypan katta qishloq, lekin u vaqtda doktor, tibbiy yordam degan gaplar birovning tushiga ham kirgan emas. Bunday kezlarda qo'ni – qo'shnilardan biror keksa ayol chaqirilar edi. Uning tajribali momo bo'lishi shart emas, qariligining o'zi kifoya edi. Biz Yaypanga yaqinda ko'chib kelganmiz, u yerda qarindosh – urug'larimiz yo'q edi, shu sababli, dadam qo'shni bir kampirni chaqirib chiqdi. Kampir ayam yotgan uyga kirib keldi. Dadam ikkovimiz hovlida o'tirdik... Qorong'i tushdi. Meni uyqu bosa boshladi.

Yonimda o'tirgan dadam birdan o'rnidan turdi. Ko'zimni ochdim. Tepamda boyagi qo'shni kampir turar edi.

-Qalay? – dadam hovliqib.

- Qiynalyaptimi bechora, - dedi. Kampir biroz jim turgandan keyin menga ishora qildi, - bolaga ayting, ayasini duo qilsin, go'dakning duosi ijobat bo'ladi.

-U.Normatov "Ustoz ibрати"-T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007-b.18

Dadam engashib mening qulog'imga shivirladi:

Xudoyo ayamga najot bergin, - -degin !

- Ayt ! Dadam qo'rquv va jahl aralash qistar edi. Duo qila boshladim. Bu orada yig'lab ham oldim, keyin uxlab qoldim. Ertalab uyg'onsam ayamning ko'zi yoribdi.

Bu voqea "Bemor" hikoyasini yaratilishiga asos bo'lgan . Muallif voqeani hikoyaga aylantirishda unga qator jiddiy o'zgartirishlar kiritgan.

Odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor bo'lgan fojievliy mohiyatni ko'rish, teran his qilish, qahramonlar xarakteri va qismatini, ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida mahorat bilan gavdalantirishi Abdulla Qahhor hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridandir.

Shuni ta'kidlash joizki, Abdulla Qahhor ijodini o'rganish yuzasidan S.Matjonov, X.Saidmurodovlarning "Ulug' adib ijodini o'rganishda oshkora muloqot", M.Nurmatovaning "Uch avlod Abdullasi", M.Mirzahamidovaning "7-sinfda Abdulla Qahorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish", "G.Nurmatovaning "6-sinfda Abdulla Qahorning "Bemor" hikoyasini o'rganish, Sh.Mahkamovaning "Abdulla Qahhor ijodini o'rganish tajribasidan", S.Umrzaqovaning "Bemor" hikoyasining struktural tahlili", S.Abduraxmonovaning " Abdulla Qahorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish usullari" kabi metodik maqolalarda ham fikrlarimiz o'z aksini topgan.

Abdulla Qahhor ijodini hikoyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ijodkornig o'zi yashab o'tgan davr bilan bog'liq, turli mavzulardagi, ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etuvchi hikoyalari talaygina. Ana shunday hikoyalaridan biri "Bemor" hikoyasidir. Kichik hajmli mo'jazgina ekanligiga qaramasdan hikoyaning salmog'i, zalvorli. Ijodkor yashab turgan va qisman bugungi kun haqiqatlarini o'zida jamlagan.

Hikoyada davrning muammolaridan bo'lgan qashshoqlik, ilmsizlik, loqaydlik qoralanadi. Mana shu illatlar voqealar atrofida birlashtiriladi. Iqtisodiy imkoniyatning cheklanganligi sababli kishilarning ijtimoiy imkoniyatlari ham chegaralanishi haqida so'z yuritiladi.

Matjonov S, Saidmurodov.X "Ulug' adib ijodini o'rganishda oshkora muloqot"// "Til va adabiyot ta'limi"jurnali 1910-yil 10-son 16-17-betlar.

Nurmatova. M."Uch avlod Abdullasi" // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 1993-yil 2-son 23-25-betlar.

Nurmatova G ." 6-sinfda Abdulla Qahorning "Bemor" hikoyasini o'rganish.// 'Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2010-yil 3-son 15-20-betlar.

Mahkamova Sh. "Abdulla Qahhor ijodini o'rganish tajribasidan" // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2011-yil 4-son 11-14-betlar.

Umrzaqov R "Bemor" hikoyasining struktural tahlili. // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2012-yil 2-son 17-21-betlar.

Abduraxmonova S. "Abdulla Qahorning "O'g'ri" hikoyasini o'rganish usullari. // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2012-yil 6-son 13-18-betlar

Boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq, munosabatlar va inson qadr – qimmatini o‘sha davr muhitida yoritib berilgan. Xalq orasida bir naql bor: “ Yer yuzida yomon insonlar ko‘p emas, ularga qarshi kurashmaydiganlar ko‘p”. Hikoyada ham na shunday bemor sifatida butun boshli millatning o‘sha davrdagi taqdiri ochib beriladi.

Hikoyada Sotiboldining xotini kasallanib yotib qoladi. Sotiboldining boshiga tushgan kulfat – og‘ir kasal yotgan xotini dardiga davo izlab yelib – yugurishlari, bu soddadil odamning omonat dalda, maslahatlarga umid bog‘lab yanada xarob, nochor holga tushishi, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom ojiz, qo‘li kalta Sotiboldi obrazi orqali butun davrning ijtimoiy muhiti tasvirlangan.

Sotiboldi oddiy ishchi. Iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi oilaning ijtimoiy imkoniyatlarini ham chegaralab qo‘yadi. Abdug‘aniboyning qo‘lida xizmat qiladi, puli faqatgina, tovuq bilan qonlash, chilyosin o‘qitish, baxshi chaqirtirishgagina yetadi, xolos. Shifoxonaning eshigidan ham kirmagan Sotiboldi kasalxonaga so‘zini eshitganda oq podsho va izvoshi surati tushirilgan 25 so‘mlikning ko‘z oldiga keladi. Nochorlik sabab, ayolini kasalxonaga olib borolmaydi. Xo‘jayinidan qarz so‘raydi. Abdug‘aniboy nochor bir ayolning umri, bir farzandning onasi, bir insonning turmush o‘rtog‘ini hayotini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan pullarini qizg‘anadi. Insoniylikni bir chetga surib qo‘yadi. Yordam qo‘lini cho‘zish o‘rniga Sotiboldiga turli bid‘at, foydasiz amallarni qilishni tavsiya qiladi. Boyning holatga nisbatan ko‘rsatgan yo‘l - yo‘riqlari o‘sha davr boylarining qashshoq aholiga nisbatan bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Boylarda pul bo‘lsa-da, ma‘naviyati sustlik qilib, loqaydlarcha yordam bermasliklari, qo‘ni – qo‘shnilaridan ham najot yo‘qligi - ushbu davrda qashshoqlikning judayam kuchayganini bilishimiz mumkin. Hikoyada na Sotiboldining, na ayolning birorta qarindoshlari haqida ham hikoyaning biror joyida so‘z yuritilmaydi, chunki, qarindoshlari orasida ham yordam qo‘lini cho‘za oladigani yo‘qligi uchun ham... Bemorning qanday kasalga chalinganligini haqida ham aniq ma‘lumot yo‘q. Uning qanday kasalga chalinganligini tabiblar – u, baxshilar ham bilishmaydi. Zamona ilmsizligining qurboni bo‘lgan kimsalardan biri bo‘lgan bu – tabib. Tabiblikning kasb qilgan kishi bemorning dardini bilmasdan turib, undan qon olishi mumkin emas. Lekin hikoyada tabib tomonidan qon olinishi bemor ayolning yanada holsizlanib qolganligini guvohi bo‘lamiz. Bemorni tol xipchini bilan savalatishi, “ko‘ngilga armon bo‘lmsin “ deb chilyosin qildirishlarning sababi : o‘lib qolmasligi uchun qilayotgan sa‘y-harakatlar emasmi aslida... O‘lib qolsa, yanada qimmatga tushmasligi uchun qilingan muolajalar edimi bu ? Axir, o‘lgan kishini qabrga qo‘yish, ma‘raka marosimlarini o‘tkazish – bularning barchasi pul evaziga bo‘ladigan ishlar. Sotiboldi bu tavsiyalardan ko‘ra, bemor xotinini shifokorga olib borganida shunchalik ovorayi-sarson bo‘lmas edi. Aynan mana shu pul, qashshoqlik, nochorlik sababli o‘sha davr kishilarining qanchalik o‘z imkoniyatlaridan, tuyg‘ularidan mahrum

bo‘lganliklarini ko‘rsatib bermoqda yozuvchi. Bu davrda ijtimoiy imkoyati yetarli bo‘lmagan kishilar kasallikka qarshi muolajalarni ham ololmaganligi, bu boisdan oddiygina kasalliklar sabab ko‘pchilikning hayotdan bevaqt ko‘z yumishiga sabab bo‘lgan. Pul sababli inson qadri tushunchalari ahamiyatini yo‘qotgan. Jamiyatdagi kishilarning maqsadi qorin to‘yg‘azish va kundalik turmush tashvishlari bilan chegalangan. Xalqimizda bir naql bor: “O‘zing uchun o‘l yetim” deganlaridek, o‘zingdan o‘zga qo‘llab – quvvatlaydigan, yordam beradigan insonni o‘zi topilmaydi. Bunday sharoitda farzandlarni o‘qitish, ularga ilm berish haqida o‘ylashni gapirmasak ham bo‘ladi. Hikoyada tabib, baxshi, tol xipchini bilan savalovchi, qon oluvchilardan mudhishroq hodisa bor. Butun boshli jamiyatning birgina qizaloq qiladigan duolar bilan kifoyalanishi – hikoyaning mazmunini ochib beruvchi eng katta omildir. Butun boshli jamiyatda bir ayolning dardiga darmon bo‘ladigan kishi topilmaydi. Shifoxonalar, boylar, badavlatlar ko‘p bo‘la turib, yordam beradigan aqalli bir kishi topilmaydi. Savat to‘qib ayolini hayotini saqlab qolishga harakat qilayotgan, shifokorga ko‘rsatish uchun imkoniyati yetmaydigan Sotiboldining ham ahvoli juda nochor, ilojsiz tasvirlangan. Mening nazarimda, shuncha yordam berishga qodir kishilar bo‘la turib bir yosh ayolni saqlab qola olmagan jamiyatda ayb... Tuzumda ayb. Shu jumlada, bemor faqatgina Sotiboldining xotini emas, butun jamiyat – bemor.

Bir bechora oilaning qashshoq hayoti orqali... butun xalq, millat qoloqlikdan uyg‘ona olmagan BEMOR XALQ hayoti ko‘rsatib berilgan.

“O‘g‘ri” hikoyasida o‘g‘irlangan ho‘kizini topaman deb jabrdiyda cholning najot kutib, mansabdorlar huzurida dovdirab, dildirab turishlari, himmat o‘rniga tahqirlanishi, kamsitish – u xo‘rlanishlarga befarqligi, o‘zgalar baxtsizligini tirikchilik manbayiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi ta‘qib ostiga olingan. Kattaroq baloga giriftor bo‘lgan bir dehqonning amaldorlar tomonidan talanishi, xonavayron qilinishi, xalqning ahvolini, vaqtini o‘g‘irlagan o‘qimagan, omi xalq, mansabparast amaldorlarning aslida... INSON HAYOTINING O‘G‘RISI EKANLIGI fosh etilgan. “O‘g‘ri”da oddiy xalq hayotini aks ettirgan qahramon – Qobil bobo haddan tashqari go‘l, nodon odam. U O‘z raqiblariga qarshi turish, ularni dushman deb bilish o‘rniga, dushman bilan do‘st tutinadi. Ulardan yaxshilik kutib, ketidan tinmay yuguradi. Qobil boboning eng qaltis, ayanchli vaziyatdagi holati aslida kulgili... Lekin bu kulgi zamirida oddiy odamni shu kuylarga solgan mihitga nisbatan kuchli nafrat hissi yotadi. Ko‘rinib turadiki, amin ellkiboshining o‘zginasi, u ham kambag‘alga aslo qayishmaydi. Cholni laqillatadi. Paytdan foydalanib bir narsali bo‘lib qolishni o‘ylaydi, asl qiyofasini yashirib o‘tirmaydi, cholni bemalol masxaralaydi. Keksa kambag‘al choldan pora so‘raydi. Chol qayg‘u – sitam, xo‘rlanishlar qurboniga aylanadi. Bu hikoyada ham xalq hayotidagi ma‘naviy qashshoshlik aks ettirilgan.

“Dahshat” hikoyasida inson erki hamma narsadan afzal ne‘mat ekanligi tarannum etilgan. Unsinning “O‘g‘ri”dagi Qobil bobo, “Bemor” dagi Sotiboldidan farqi shundaki, u mutelik asirasi va jaholat qurboni bo‘lishni istamaydi. Hurlikka intilgan

inson oldida har qanday to'siqlar turmasin, iroda kuchiga tayanib, maqsadi yo'lida chekinmaydi.

Olimbek dodhoning sakkiz xotini bo'lib, eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak Unsin agar eri butunlay javobini bersa, Ganjiravonga – o'z uyiga ketmoqchi bo'ladi. Olimbek dodho xonadonidan qutilish yo'lidagi mislsiz jasorati qahramonning halokati bilan tugashi, biroq qahramon o'limi dodhoh xonadonini izdan chiqaradi, talotumlarga giriftor etadi. Dodho bemehr, beparvo qahramon sifatida tasvirlanib, uning qiliqlariga ortiqcha dosh berishni xihlamagan Unsin hattoki, shamol uvillab turgan paytda , go'ristonga borib qumg'onda suv qaynatib kelishga ham rozi bo'ladi. Shartning uddasidan chiqsa, dodhoh uning javobini berishi kerak edi. Unsin go'ristonga bordi ham, u suvni qaynatib bo'lgach, ichidagi ulkan qo'rquv bilan ketayotganda, paranjisi qolib ketgani yodiga tushadi, ortga qaytib uni olib ketayotgan paytda oyog'i bexosdan yerga kirib ketishi holati, Unsin bundan qo'rqib ketadi. Oyog'i o'likning qorniga kirib ketganday bo'ladi. Arang katta ko'chaga chiqib oladi. Uyiga qaytayotganida birdan hushidan ketadi. Chunki, razil Dodho Unsinni tekshirib kelish uchun o'z maymunini jo'natgan edi. Maymun Unsinning yelkasiga bir sakraganida Unsin qo'rqib yiqiladi, chunki, uni arvoh deb o'ylagandi. Unsin ancha vaqtdan keyin o'ziga kelib, arang uyiga yetib boradi. Peshinga bormay joni uziladi. Ushbu hikoyada insonga achinish, mehr-shafqat tuyg'usidan mahrum kishilarning bechora kishilarni xo'rlashdan cheksiz lazzatlanishlari, o'sha davr butun ijtimoiy muhitining qoloqligi, qashshoqligi, ma'naviy ongning yetishmasligi oqibatida oddiy xalq aholisining jabrlanishiga sabab bo'lgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'tkir qalam sohibi, ajoyib so'z ustasi – Abdulla Qahhor hikoyalarida insonga achinish, mehr-shavqat tuyg'usidan mahrum kimsalarning bechora kambag'al kishilarni xo'rlashdan cheksiz lazzatlanishi betakror manzaralarda tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Ammo yozuvchi manman kishilarga qahr – g'azabni ham, kambag'al bechoralarga achinish tuyg'usini ham oshkora izhor qilmaydi. U voqelikni odamlar munosabatidagi ziddiyatni xolis turib gavdalantirishi Abdulla Qahhorning hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridan biri ekanligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Qahramoni munaqqid Ozod Sharafiddinov "Abdulla Qahhor" –adib hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar kitobi debochasida shunday yozadi: "O'zbek adabiyoti asoschilaridan biri-Abdulla Qahhor bosib o'tgan sharaflari va mashaqqatli yo'l har bir qalamkash, har bir oddiy kitobxon uchun ibrat maktabidir. Ulkan iste'dod egasi so'nggi nafasigacha adabiyot dargohini muqaddas bildi, so'zning sofligi, jangovorligi va hayotiyliigi uchun qat'iy kurashdi. Mana shu tufayli adib yaratgan g'oyaviy-badiiy yuksak qissalar, hikoyalar, pyesalar adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egalladi".

O.Sharafiddinov "Abdulla Qahhor". –T.: "Yosh gvardiya", 1988-yil 2-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyayev Sh.M “ Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” Xalq so‘zi 2016-yil 16-dekabr
2. 6 – sinf “Adabiyot” darsligi S. Ahmadov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. 2017-yil.
3. 7 – sinf “Adabiyot darsligi Q. Yo‘ldashev, B. Qosimov, V. Qodirov, Y. Yo‘ldoshbekov 2017-yil
4. S. Matjon va boshqalar. O‘zbek va boshqalar. O‘zbek adabiyoti
5. Toshkent- 2007-yil.
6. V. Qodirov va boshqalar. O‘zbek adabiyoti Andijon – 2006-yil
7. N. Karimov XX asr O‘zbek adabiyoti “O‘.qituvchi” Toshkent- 2002-yil
8. B. Qosimov va boshqalar. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti 2004-yil
9. Elektron manba : ziyonet.uz.
10. Umarali Normatov “Ustoz ibрати” Toshkent 2007-yil
11. Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti 1984-yil
12. Sharafiddinov O. “Abdulla Qahhor”- T.: Yosh gvardiya 1988-yil